


Aka-Uka Grimmilar

# BREMENLIK MUSIQACHILAR





ГДБ, Узбекистан  
Ф.И.В. № 320425



Bir eshak ko'p yillar egasining qoplarini hormay-tolmay tegirmonga tashib yurardi. Ammo qarib, kuchdan qolgach ishga yaramay qoldi.

«Endi unga xahsak, yem-pem bermasayam bo'ladi, kuni bitib qoldi», deb o'yladi xo'jayin. Eshak buni sezib qoldi va uydan qochib chiqdi. U to'g'ri Bremen tomon yo'l olar ekan, ko'cha musiqachisi bo'lishni xayol qilardi. Ko'p o'tmay ovhchi itga duch keldi. Itning tili osilgan, zo'rg'a-zo'rg'a yurar, holdan toygani ko'rinib turardi.

— Ha, holing juda tang ko'rinadi, nima bo'ldi? — so'radi eshak.

— E, sen so'rama, men aytmay, — dedi it, — qarib qoldim. Kundan-kunga holdan toyib boryapman, ovgayam yaramayman. Xo'jayinim meni otib tashlamoqchiydi, zo'rg'a qochib qutuldim. Endi qanday tirikchilik qilaman?

— Bilasanmi, — gap boshladi eshak, — men Bremenga ketyapman, u yerda ko'cha musiqachisi bo'lmoqchiman, yur men bilan, sen ham mashshoqlik qilaverasan-da. Men ud chalaman, sen nog'orani tankillatasan.

It bunga bajonudil rozi bo'ldi va ikkovlon yo'lga tushishdi. Tez orada mushukka duch kelishdi: u yo'l yoqasida hurpayib o'tirardi.

— Ha, Baroqvoy, boshingga musibat tushdimi, deyman? — Savolga tutdi uni eshak.



— Namuncha tumshug'ing osilgan? — so'radi it.

— Gap tirikchilik haqida ketganda qandoq xursand bo'lay, — javob berdi mushuk, — qarib qoldim, tishlarim o'tmaslashdi. Sichqon ovlash o'rniga pechka ustiga yotvolib miyovlayman, xolos. Bekam meni suvga cho'ktirib yubormoqchidi, yaxshilik-

chasiga keta qoldim. Xo'sh, menga qanday yaxshi maslahat berasan? Qayerdan boshpana topamanu nima yeyman?

— Biz bilan Bremenga yur. Axir sen tungi tomoshalar qo'yishga ustasan-ku, u yerda ham musiqachilik qilaverasan.

Bu taklif mushukka ma'qul keldi va birgalashib yo'lga tushdilar. Uchala qochoq bir hovli yonidan o'tishayotib qarashsa, bir xo'roz darvoza ustiga chiqib olib, ovozi boricha qichqiryapti.

— Namuncha tomog'ing yirtilgudek qichqirasan? — dedi eshak. — Seni nima jin urdi?

— Senga nima bo'ldi? — so'radi it.

— Birov xafa qildimi?— oraga suqildi mushuk.

— Havo ochiq bo'lishini bildiryapman,— javob berdi xo'roz.— ... Bekamda rahm-shafqat yo'q: ertaga yakshanba, kechqurun mehmon keladi. U oshpazga meni so'yib qovurishni buyurgan. Bugun kechqurun kallamni uzishadi. Shuning uchun ham tirikligimda qichqirib qolmoqchiman.



— E-ha-a, «oltin tojli xo‘rozim» deganlari shu ekan-da, — dedi eshak. — Vey, biz Bremenga ketyapmiz, yaxshisi, yur biz bilan, baribir o‘limdan yomonroq narsani topib bo‘lmaydi. Sening ovozing ham yaxshi. Agar hammamiz jo‘rovoz bo‘lsak, ishimiz yurishib ketadi.

Xo‘rozga bu taklif jo‘yali ko‘rindi va to‘rtovlon yo‘lda davom etishdi. Bremenga shu kuniyoq yetib borishning iloji bo‘lmadi-yu ular o‘rmonda tunashga qaror qilishdi.

Eshak va it katta daraxt ostiga cho‘zilishdi, mushuk va xo‘roz butoqqa chiqishdi. Xo‘rozga qulayroq tuyuldi shekilli, daraxtning eng uchiga chiqib oldi. Ammo uxlashdan oldin tevarak atrofni ko‘zdan kechirdi va unga uzoqda gulxan ko‘ringandek bo‘ldi. U sheriklariga «Menimcha shu yaqin orada uy borga o‘xshaydi, chunki shu‘la ko‘rinyapti», deb qichqirdi. Shunda eshak:





– Modomiki shundoq ekan, turdik, o‘sha yerga boramiz. O‘zi bu joy ko‘nglinga o‘tirishmayroq taruvdi, dedi.

It «Suyakmi, bir tishlamgina go‘shmi bo‘lsa, ziyon qilmasdi», o‘yladi. Mushuk: «Ozgina sut bo‘lsa ichvølaman» deb, xo‘roz esa: «Balki don ham topilib qolar», deb qo‘yishdi. Utar



o'sha yorug'lik tomon yo'l oldilar. Ko'p o'tmay gulxan kattaroq ekanligiga amin bo'ldilar. Shu tariqa qaroqchilarning makoniga kelib qolishdi. Hammadan katta bo'lgani uchun eshak deraza yoniga bordi va asta mo'raladi.

— Xo'sh, eshakvoy, nimalarni ko'ryapsan? — so'radi xo'roz.

— Nimani bo'lardi, — dedi eshak, — yasatug'lik to'kin dasturxonni, unga har xil mazali yeguliklar va ichimliklar qo'yilgani, qaroqchilar ko'ngillari tusaganini yeyishayotganini ko'ryapman.

— Ehtimol u yerda bizgayam biron narsa topilib qolar, — dedi xo'roz.

— Ha, agar kiolsak, albatta topiladi, — dedi eshak.

— Bir narsa yeb olsaydim! — so'lagini oqisdi it.


— Bir nima ichib olsaydim! — tamshandi mushuk.

Jonivorlar o'zaro qaroqchilarni qanday qilib quvib chiqarish-Ni muhokama eta boshlashdi va nihoyat, yo'liniyam topishdi. Rejaga ko'ra, eshak derazaga old oyoqlarini qo'yadi, it eshakning, mushuk esa itning yelkasiga chiqadi, xo'roz bo'lsa uchib mushukning boshiga qo'nadi. Ular xuddi shunday qilishdi va baravariga ashulani vang qo'yib yuborishdi: ehsak hangradi, it vovulladi, mushuk miyovladi, xo'roz qanotlarini tapillatib qichqirishga tushdi. Shundan so'ng derazadan oshib, xonaga bostirib kirishdi. Oynalar sharaqlab sindi. Bundan o'takasi yorilayozgan qaroqchilar o'rmonga tumtaraqay bo'lib qochishdi. Shundan keyin to'rtala og'ayni bamaylixotir o'tirib, ko'ngillari tusagan narsani yeyishga kirishishdi. Qorinlar qappaygach, chiroqni o'chirib, har biri o'z odaticha uxlashga qulay jou qidirdi. Eshak uzala tusha qoldi, it uning yoniga cho'zildi, mushuk issiqqina o'choqqa kirdi, xo'roz esa qo'noqqa chiqib o'rnashdi. Yo'l yurib charchashmaganmi, birpasda dong qotishdi.

Yarim tunda qaroqchilar qarashsa, uyda chiroq o'chgan, hammayoq tinchlik emish.

— Bo'lar-bo'lmasga qo'rqaverishga balo bormi, — dag'dag'a qildi qaroqchilarning boshlig'i, — bor, nima gapligini bilib kel, — deb yigitlaridan birini jo'natdi.







U kelib qarasa, rostdanam hammyoq tinchlik, osoyishtalik. Yigit chiroqni yoqay deb oshxona tomonga yurdi. O'choqda yotgan mushukning ko'zi unga cho'g' bo'lib ko'rindi. Kulni nayzasining uchi bilan titib, cho'g'ni o't oldirmoqchi bo'ldi. Ammo mushuk bunaqa hazilni ko'tarmasdi. U dabdurustdan qaroqchining yuziga sapchidi va pixillagancha timdalay boshladi. Yuragi chiqib ketgan qaroqchi o'zini orqa eshikka urdi: u yerda it yotgandi, shartta oyog'idan oldi. Qaroqchi itdan qochaman deb, eshakni uyg'otvordi. Eshak uni orqa oyog'i bilan chunonam tepdiki... Shovqin-surondan uyg'onib ketgan xo'roz qo'noqda turganacha qanotlarini tapillatib «Qu-qu-qu-u-u!» — deb qichqirib yubordi.



Qaroqchi orqasiga qaramay qochdi va ko'rganlarini boshlig'iga ayta boshladi:

— O'-o', uyimizga jinlar kirib opti. Bittasi bo'g'volib, yuzko'zimni shunaqangi yuldiki, eshik oldida bittasi pichoq ushlab

160

turgan ekan, boldirimni tilib yubordi, yana bittasi orqamga shu-  
naqayam tepdiki. Tomda qozisiyam bor ekan. «O'g'rini buyoqqa  
olib kelinglar!» — deb na'ra tortdi. Zo'rg'a qochib qutuldim.

Qaroqchilar shundan keyin bu uyga qadam izi qilishmadi.  
Mashshoqlarga bu joy shu qadar ma'qul tushdiki, ketgilari kel-  
may qoldi.

Bu ertakni kimdan eshitsangiz, o'sha odam bu voqealarni o'z  
ko'zi bilan ko'rganiga ishonavering.

